

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ZIYAYEVA YULDUZ TEMIRXONOVNA**

**MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ROMANLARIDA “OSHIQ-MA’SHUQA-  
RAQIB” OBRAZLARINING POETIK TAKOMILI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Philological  
Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Ziyayeva Yulduz Temirxonovna**

Mustaqillik davri o'zbek romanlarida "oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazlarining poetik takomili.....3

**Ziyayeva Yulduz Temirxonovna**

Poetic improvement of "enamored-mistress-rival" images in uzbek novels of the independence period.....25

**Зияева Юлдуз Темирхановна**

Поэтическое совершенствование образов "влюблённый-возлюбленная-соперник" в узбекских романах периода независимости.....47

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published work.....53

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ZIYAYEVA YULDUZ TEMIRXONOVNA**

**MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ROMANLARIDA “OSHIQ-MA’SHUQA-  
RAQIB” OBRAZLARINING POETIK TAKOMILI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2435 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Jo'raqulov Uzoq Haydarovich  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Murodov G'ayrat Nekovich  
filologiya fanlari doktori, professor  
Radjapova Burobiya Tangirovna  
filologiya fanlari nomzodi

**Yetakchi tashkilot:** Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "5" 04 soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz)).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (254 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "27" 03 kuni tarqatildi.

(2023-yil "27" 03 dagi 2 raqamli reestr bayonnomasi).



**I.I.Adizova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

**Q.U.Pardayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash itoijiy kotibi, filol.f.d., dotsent

**Q.B.Yo'ldoshev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, ped.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyoti tarixan badiiy obrazning xilma-xil namunalarini taqdim etib keladi. “Oshiq-ma’shuqaraqib” obraz-triadasi ayni jarayonda vujudga kelgan eng qadimiy, eng faol va mazmun-shakl jihatidan mukammal poetik tizimdir. Bugungi adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biri ushbu qadimiy tizimning maydonga kelish omillari, shakllanishi va taraqqiyot jarayonlarini tadrijiy o’rganishdan iborat.

Dunyo adabiyotshunosligida tarixiy poetika ilmini nazariy adabiyotshunoslik bilan uyg’unlashtirish, adabiy-tarixiy jarayonga tatbiq etish adabiyot nazariyasining yangi, global ko’lamga chiqishini ta’minladi. Bunday yangilanishlar umuman adabiyotshunoslik nazariyasini, xususan, muayyan badiiy obrazni tarixiylik prinsipiga ko’ra tadqiq etish, masala mohiyatini chuqurroq yoritishga asos bo’ladi. Folklor manbalari, mumtoz va zamonaviy adabiyotga oid obrazlarni bir butun holda, tarixiylik prinsipi asosida tadqiq etish mavjud an’analarni yangilash, ilmiy-nazariy potensialni kuchaytirishning eng samarali yo’liga aylandi. “Oshiq-ma’shuqaraqib” uchlik tizimining o’zbek romanida tutgan o’rni va ahamiyatini belgilashda shu kabi original talqin va yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik davrida, ayniqsa, keyingi besh-olti yil ichida ilmiy, ma’naviy, fan-texnika yo’nalishlari, shu jumladan, adabiyotshunoslik sohasi ham yangi bosqichga ko’tarildi. Globallashtirilgan XXI asr dunyosi standartlariga moslashayotgan yangi adabiyotni tahlil-u talqin etishning yo’l va metodlarini izlash yangi o’zbek adabiyotshunosligini sifat o’zgarishlari tomon intilishiga sabab bo’lyapti. Ayni jarayonlar adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqidning spetsifik muammolarini qayta ko’rib chiqish, yangilash talabini qo’yadi. Adabiy janrlar, badiiy asar, syujet, kompozitsiya, xususan, badiiy obraz mohiyatidagi o’zgarishlar, ularning poetik takomili esa bugungi adabiyotshunoslik ilmining o’zak muammolaridan hisoblanadi. “Oshiq-ma’shuqaraqib” uchligi o’zbek adabiyotining ming yillik an’analari davomida shakllanib, taraqqiyot va o’zgarish bosqichlarini o’tab keldi. O’zbek folklori, mumtoz adabiyoti, jadid nasri va lirikasida uchlik tizimining turli shakl va namunalari, mazmun-shakl nuqtayi nazaridan o’zgarishga uchrangani kuzatiladi. Ayni tizim Abdulla Qodiriyni Qur’oni karimda kelgan ilohiy xabar voqeligiga qaytargan, “Alpomish”, “Go’ro’g’li” eposlari an’analarni davom ettirishga undagan, hazrat Navoiy “Xamsa”si dostonlari ruhiyatini yangi janr sathiga olib kirishiga asos bo’lgan bo’lsa, Abdulhamid Cho’lponning “Kecha va kunduz” romanida milliy muammolar Yevropa roman tafakkuri prizmasida talqin etildi. Muso Toshmuhammad o’g’li Oybekning “Qutlug’ qon” romanida “oshiq-ma’shuqaraqib” uchligi real turmush voqeligiga bilan uzviy bog’lanishi bilan birga, tarixiy shart-sharoit, sovetcha adabiy siyosat ta’sirida muayyan o’zgarishlarga uchradi. Abdulla Qahhorning “Sarob” romani ham ayni ijtimoiy shart-sharoitning nobopligidan aziyat chekdi, undagi markaziy obrazlar jiddiy tanqid va tazyiqqa uchradi. Oqibatda “oshiq-ma’shuqaraqib” obrazlari spetsifikasida ixtiyoriy-majburiy o’zgarishlar, ya’ni ijtimoiylashuv, sinfiylashuv holati yuz berdi. Ammo 60-80-yillardagi muayyan

o'zgarishlar, "mayin shabada" deb nomlanuvchi ijtimoiy siyosat badiiy adabiyot, xususan, roman obrazlarida ham nisbiy ma'nodagi poetiklashuv, milliy lashuvning kuchayishiga omil bo'ldi. Odil Yoqubov, Primqul Qodirov romanlarida boshlangan ayni badiiy rezonans O'tkir Hoshimov, Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zam, Tog'ay Murod, Xurshid Do'stmuhammad, Shoyim Bo'tayev, Luqmon Bo'rixon, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton asarlarida o'zining jiddiy natijalarini namoyon qildi. Zotan, "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi!"<sup>1</sup> Shunday ekan, bugungi yangilanayotgan adabiyot, ularda aks ettirilgan badiiy obrazlarning milliy an'analarimizga naqadar bog'liqligi, poetik qonuniyatlar barhayotligi, shu tariqa jahon adabiyoti sathlarini zabt etish jarayonlarini tizimli tadqiq etish yangi davr o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim va dolzarb muammolardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, 2017-yil 3-avgustdagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida adabiyotning ta'sir kuchini oshirish bo'yicha topshiriqlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mustaqillik davri o'zbek romanlari turli aspektlarda o'rganilgan. Jumladan, romanchilik tarixi, tadrijiy bosqichlari, o'zbek milliy romanining paydo bo'lishi, shakllanishi, janr taraqqiyotiga xos spetsifik jihatlar, an'anaviy realistik talqin, modernizm yo'nalishidagi romanlar tahlili, uslub rang-barangligi, syujet, konflikt, obrazlar tizimi kabi nazariy muammolar M.Qo'shjonov, U.Normatov, A.Rahimov, D.To'rayev, Z.Pardayeva, S.Sodiqov, I.Yoqubov, G'.Murodov, S.Meli, Q.Yo'ldosh, D.Quronov, U.Jo'raqulov, B.Karimov, Sh.Doniyorova, M.Pirnazarova, M.Sheraliyeva kabi

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. // "Халқ сўзи" газетаси, 2017. 153-сон.

olimlar tomonidan o'rganilgan.<sup>1</sup> Xususan, M.Qo'shjonov A.Qodiriy romanlaridan tortib 80-yillargacha bo'lgan romanlarning rivojlanish bosqichlari, janr xususiyatlarini tadqiq etdi. U.Normatov tadqiqotlarida A.Qodiriy, Oybek, A.Qahhor ijodiga e'tibor qaratildi. A.Rahimov izlanishlarida syujet va konflikt muammolari roman konteksti doirasida o'rganildi. D.To'rayevning "Hozirgi o'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi (60-80-yillar)" nomli tadqiqotida A.Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, A.Qahhor, O'.Hoshimov, M.M.Do'st romanlari tahlil qilinadi. D.Quronov "Cho'lpon nasri poetikasi" nomli monografiyasida Cho'lponning nasriy asarlarini yaxlit holda o'rganadi. "Kecha va kunduz" romani poetikasi, obrazlar tizimi, uslubi, syujeti, detallari, matn xususiyatlarini tadqiq etadi. Ayni tadqiqotning dissertatsiyamiz uchun muhim jihati shundaki, ularda o'zbek adabiyotiga an'anaviy Sharq epik ijodi, jahon realistik romanlari va modern romanlarning ta'siri muammosi atroflicha yoritilgan. Atoqli qodiriyshunoslardan biri B.Karimov Qodiriyning ijod yo'li, ijodkor shaxsiyatidan tortib, kichik asarlari va "Mehrobdan chayon", "O'tkan kunlar" romanlari syujeti va obrazlar tizimini yoritadi. Yana bir adabiyotshunos G'.Murodov "Tarixiy romanning mushtaraklik va o'ziga xosliklar uyg'unligi" deb nomlangan dissertatsiyasida "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Kecha va kunduz", "Doxunda", "Qutlug' qon", "Navoiy", "Ulug'bek xazinasi", "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" kabi romanlarni tahlilga tortadi va qiyosiy o'rganadi. Adabiyotshunos I.Yoqubov "Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi" deb nomlangan tadqiqotida mustaqillik davri o'zbek romanlarida janr modifikatsiyasi, yangilanayotgan milliy romanlar, mini-roman yaratish yo'lidagi izlanishlar, roman strukturasida an'anaviy motivlar kabi masalalarni o'rganadi. M.Pirnazarova, Z.Pardayevalar ham o'z izlanishlari natijasida hozirgi o'zbek romanlaridagi yangicha tamoyillar, badiiy talqinning imkoniyatlari, ilohiy tushunchalarning roman konsepsiyasiga sintezlashuvi, noan'anaviy tamoyillarning shakllanishi kabi muammolar yuzasidan o'z qarashlarini bildiradi. Filologiya fanlari doktori U.Jo'raqulov "Qodiriy va roman tafakkuri" deb nomlangan tadqiqotida roman syujetini ilohiy manbalarda kelgan "ilk syujet" bilan qiyoslab tekshiradi. Bunda olim Qur'oni karimda kelgan Odam (a.s), Momo Havvo, Iblis uchligiga tayanib, "oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazlarini tahlilga tortadi, syujet liniyasidagi

---

<sup>1</sup> Kўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари / Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Жилд 1. – Т.: Фан, 1991; Норматов У. Қодирий боғи. – Т., 1994; Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт). Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 1993; Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60–80-йиллар). Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 1994; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёт тамойиллари. Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 2003; Содиков С. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. – Т.: Шарқ НМАК бош таҳририяти, 2005; Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 2021; Муродов Ф. Тарихий романининг муштараклик ва ўзига хосликлар уйғунлиги муаммолари. Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 2018; Мели С. Сўзу сўз. – Т.: Шарқ НМАК бош таҳририяти, 2020; Йўлдош Қ. Сўз ёлкини. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2018; Қуроноф Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т., 2004; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Ф.Фулом номидаги НМИУ, 2016; Карим Б. Руҳият алифбоси. – Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2016; Карим Б. Абдулла Қодирий феномени. – Т.: "Info capital group" нашриёти, 2019; Дониёрова Ш. Истиклол даври ўзбек романларида миллий рух ва қахрамон муаммоси. Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 2012; Пирназарова М. Ҳозирги ўзбек романларида услубий изланишлар (О.Мухтор, Х.Дўстмухаммад, У.Ҳамдам, Т.Рустам романлари мисолида). Филол. фан. номз... дисс. – Т., 2006; Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя (Ижтимоий-психологик омиллари, поэтик тизимдаги ўрни). – Т.: Akademnashr, 2016.

“uchrashuv”, “ayriliq”, “visol” motivlarida ham ayni manbadagi “ilk syujet”ga asoslanishi, shu jihatdan G‘arb romanlaridan keskin farq qilishini aniq ko‘rsatib beradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirga qadar o‘zbek adabiyotshunosligida “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchligi aynan o‘zbek romanchiligi an’analari negizida genezisi, shakllanish va takomil bosqichlariga ko‘ra o‘rganilmagan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Jahon va o‘zbek adabiyotini qiyosiy-tipologik o‘rganishning umumnazariy muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** “Oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazini ilohiy axborotlar, mif, folklor va ilk o‘zbek romanchiligi tarixi (XX asrning 30-80-yillari)ga xos poetik tadrijini kuzatish, mustaqillik davri o‘zbek romanlarini “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchligi doirasida tadqiq etish, O‘.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”, X.Do‘stmuhammadning “Bozor”, L.Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” kabi asarlarida “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazlari spetsifikasi, ijtimoiy-ma’rifiy talqini, badiiy-psixologik funksiyasining anormallashuvi doirasida ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

“oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazlar tizimining genezisi, sinkretik holati va bundan keyingi sintezlashuv jarayonlarini miqlar, o‘zbek xalq ijodiyotiga mansub janrlar, mumtoz dostonchilik, xususan, Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlari asosida yoritish, obraz-triadaning badiiy xususiyatlari, nazariy kanonlari haqida xulosalar chiqarish;

muammoning jadid adabiyoti, romanchiligi, xususan, Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho‘lpon romanlarida aks etish usul va yo‘llarini aniqlash, ayni an’ananing Oybek va Abdulla Qahhor romanlaridagi in’ikosini kuzatish;

XX asr o‘zbek romanlarida milliy epik tafakkurning jahon romanchiligi poetik usullari bilan sintezlashuvi, ijtimoiy hayot voqeligining yozuvchi individual badiiy talqini sathida reallashuvi “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazining o‘ziga xos takomil bosqichi ekanligini ilmiy asoslash;

“Tushda kechgan umrlar” romanida “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchligining badiiy vazifasi va spetsifik o‘zgarishlari, oshiq obrazi tasvirida milliy-ijtimoiy-individual fojيانing uyg‘un psixologik tasviri yetakchiligini ochib berish;

Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor”, Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanlarida “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchligining mustaqillik davri ijtimoiy konsepsiyasi bilan mushtaraklashuvi, ayni obrazlar poetik tasviridagi milliylashuv, sintezlashuv, anormallashuv xususiyatlarini aniqlash;

zamonaviy o‘zbek romanlarida “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchligi bosqichlari, ularning milliy va jahon romanchiligi an’analari bilan munosabati, yangilanishi va takomillashuvi xususida nazariy xulosalar chiqarish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida O‘.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”, X.Do‘stmuhammadning “Bozor”, L.Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanlari, shuningdek, “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchligining takomil bosqichlarini



belgilashda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, Oybekning “Qutlug‘ qon”, Abdulla Qahhorning “Sarob” romanlari tanlandi.

**Tadqiqotning predmetini** zamonaviy o‘zbek romanlarida “oshiq-ma’shuqaraqib” obrazi genezisi, shakllanishi va takomil bosqichlariga xos poetik qonuniyatlar, spetsifik o‘ziga xoslik muammolari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, germerivtik va psixologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

“oshiq-ma’shuqaraqib” obrazlar tizimining genezisi, sinkretik holati va bundan keyingi sintezlashuv jarayonlari mifologik manbalarda buzilgan shaklda, o‘zbek xalq ijodiyotiga mansub janrlar, xususan, eposlarga kelib umumlashgani, obrazlar alohida shaxsdan millat miqyosiga ko‘tarilgani, Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarida mohiyat jihatdan ilohiy kalomlarga yaqinlashgani, qat‘iylashgani, kanonlashgani, Abdulla Qodiriy romanlarida diniy va dunyoviy tafakkur mahsuli sifatida, Abdulhamid Cho‘lpon romanlarida jahon romanchiligining ta’siri, ayni yozuvchilar an’anasining Oybek va Abdulla Qahhor romanlarida davom etgani, ochib berilgan;

“Tushda kechgan umrlar” romanida “oshiq-ma’shuqaraqib” uchligi badiiy vazifasi va spetsifik o‘zgarishlari, xususan, “ushrashuv”, “ayriliq”, “visol” motivlarining asar syujet liniyasida noan’anaviy tarzda berilgani, oshiq obrazi tasvirida milliy-ijtimoiy-individual fojining uyg‘un psixologik tasviri yetakchilik qilishi dalillangan;

Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor” romanida obrazlar poetik tasvirida ham an’anaviy, ham jahon romanchiligidagi shakliy izlanishlarni o‘zida mujassam etgani, “oshiq-ma’shuqaraqib” obrazlarining metaforiklashuvi, oshiq va ma’shuqa tasviridagi ma’rifiy talqinning yetakchiligi aniqlangan;

zamonaviy o‘zbek romanlarida obraz-triada bosqichlari, ularning milliy va jahon romanchiligi an’analari bilan munosabati, yangilanishi va takomillashuvi, L.Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida “oshiq-ma’shuqaraqib” obrazlar tasvirida sintezlashuv, anormallashuv jarayonlari asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

“oshiq-ma’shuqaraqib” obrazlar tizimini o‘rganish natijasida obraz-triadaning genezisi, sinkretik holati va sintezlashuv jarayonlari aniqlangan;

uchlik tizimining jadid adabiyoti, xususan, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon romanlarida badiiy aks ettirish an’anasining Oybek va Abdulla Qahhor romanlarida davom etishi yoritib berilgan;

mustaqillik davri o‘zbek romanlari, xususan, O‘.Hoshimov, X.Do‘stmuhammad, L.Bo‘rixon kabi yozuvchilar ijodida oshiq obrazi tasvirida milliy, ijtimoiy-individual fojining uyg‘un psixologik tasviri, ayni obrazlar poetik tasviridagi milliyliklashuv, sintezlashuv, anormallashuv jarayonlari tahlil qilingan va ilmiy-amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llanilgan yondashuv usullari va nazariy ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan manbalarning ilmiy metodlar vositasida asoslangani, nazariy fikr va

xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida o'rganilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiyotshunoslikda “oshiq-ma'shuqa-raqib” obrazlarining genezisi, sinkretik holati, sintezlashuvi, zamonaviy o'zbek romanlaridagi yangilanishi va takomillashuvi xususida olingan nazariy xulosalar bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi, o'zbek adabiyoti bo'yicha tadqiqotlar uchun material bera olishi, “Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)” ta'lim yo'nalishida “Jahon adabiyoti”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “O'zbek adabiyoti tarixi”, “O'zbek adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon” kabi fanlardan ma'ruzalar o'qishda va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishda ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mustaqillik davri o'zbek romanlarida “oshiq-ma'shuqa-raqib” obrazlarining poetik takomili tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

“oshiq-ma'shuqa-raqib” obrazining adabiyot tarixidagi poetik tadriji, tarixiy bosqichlari, uchlik takomilida an'anaviylik tamoyili hamda jahon romanchiligi ta'siri masalasi, O'.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”, X.Do'stmuhammadning “Bozor”, L.Bo'rixonning “Jaziramadagi odamlar” kabi romanlarida “oshiq-ma'shuqa-raqib” obrazlarining o'ziga xosligi, ijtimoiy-ma'rifiy talqini, ijtimoiy-psixologik funksiyasining anormallashuv jarayonlariga doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 raqamli “O'zbek adabiyoti tarixi” ko'p jildli monografiyani (7 jild) chop etish (2017-2020) mavzusidagi fundamental loyihaning nazariy qismida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 14-sentabr 04/1-2575-son ma'lumotnomasi). Natijada “oshiq-ma'shuqa-raqib” obrazining adabiyot tarixidagi poetik tadriji, tarixiy bosqichlariga oid ilmiy ma'lumotlar bilan boyishiga xizmat qilgan;

obraz-triadaning 30-80-yillar adabiyotida badiiy aks ettirilishi, “oshiq-ma'shuqa-raqib” obrazi takomilida milliy va jahon romanchiligining o'rni, “oshiq-ma'shuqa-raqib” obrazi ijtimoiy-psixologik funksiyasining anormallashuv jarayonlarini epik idroklashga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2021-yillarda bajarilgan I-OT-2019-42 raqamli “O'zbek va ingliz tillarining elektron (inson qiyofasi, fe'l-atvori tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug'atini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 16-yanvardagi 04/1-94-son ma'lumotnomasi). Natijada yangi yaratilgan poetik lug'at “oshiq-ma'shuqa-raqib” obraziga doir ilmiy izohlar bilan boyitilgan;

“Tushda kechgan umrlar”, “Bozor” romanlarida “oshiq-ma'shuqa-raqib” obrazining ijtimoiy, ma'rifiy va o'ziga xos xususiyatlari, “Jaziramadagi odamlar”

romanida “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazi ijtimoiy-ma’rifiy funksiyasining anormallasuvi, shu bilan birga, tadqiqot obyekti hisoblangan adiblar badiiy konsepsiyasining ifoda usullari, ijodkorlarga xos individuallik va poetik mahorat masalalariga doir ilmiy xulosalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali “Bedorlik”, “Adabiy jarayon” dasturlarida foydalanilgan. (O‘zbekiston teleradiokanali 2023-yil 16-yanvardagi 04/36-75-sonli ma’lumotnomasi). Natijada dastur uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni nazariy ma’lumotlar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 6 tasi xalqaro hamda 3 tasi respublika jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 155 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilingan ishlar va tadqiqotning tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Oshiq-ma’shuqa-raqib” uchligining genezisi va adabiy-nazariy omillari** deb nomlangan dastlabki bobi ikki fasldan iborat. Bobning *“Ilohiy manbalar, mif va milliy folklor namunalariida “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazi*” nomli birinchi faslida mazkur uchlik obraz tizimi Sharq-islom ma’naviy muhitida shakllangan adabiyot, adabiy shakl va janrlar ilohiy manbalardan oziqlangani, to‘yingani va sharqona mezonlarga asoslangani haqidagi nazariy tezis asosida fikr yuritilgan.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda adabiy-estetik hodisalarni ilohiy manbalarga tayanib talqin qilish tendensiyasi ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, adabiyotshunos A‘zamxon Qozixo‘ja “Qissa janrining xususiyatlari”<sup>1</sup> maqolasida qissa janrining kelib chiqishi va janrga xos xususiyatlarini belgilashda Qur’oni karimdagi Yusuf alayhissalom qissasini asos qilib oladi. Olima Umida Rasulova ham “XX asr o‘zbek qissachiligi (poetik izlanishlar va taraqqiyot tamoyillari)”<sup>2</sup> nomli monografiyasida qissa janrining tarixiy asoslarini diniy qissalar bilan bog‘lab tahlilga tortadi. Adabiyotshunoslikda bunday an’ana nafaqat muayyan janr tarixini aniqlashda, balki obraz-triada genezisini yoritishda ham ko‘zga tashlanadi.

<sup>1</sup> Қозихўжа А. Гар ортуқ сўз дедим... –Т.: “Nurafshon business” нашриёти, 2021. – Б. 163.

<sup>2</sup> Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). – Т.: “Qamar Media” нашриёти, 2020. – Б. 320.

Adabiyotshunos U.Jo‘raqulovning “Qodiriy va roman tafakkuri” hamda “Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi” deb nomlangan tadqiqotlarida obraz-triada genezisi ilohiy manbalarda ekanini klassik dostonlar matni va badiiy konsepsiyasidan kelib chiqib asoslagan. Bu esa, nafaqat epik janrlar genezisi, ularning markazida turuvchi “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazining ilk asoslari ham ilohiy manbalarga borib bog‘lanishi haqidagi asosli to‘xtamga olib keladi.

Negaki, “oshiq ma’shuqa-raqib” uchligi tub asoslari bashariyat tarixining ilk ibtidosi, ya’ni ilohiy kitoblarda kelgan (ilk syujet)ga Odam (a.s), Momo Havvo va Iblis haqidagi ilohiy xabarga borib bog‘lanadi. Ilohiy axborotda kelishicha, Odam (a.s)ning yaratilishi va unga Momo Havvoni juft qilinishi, yer yuzida Ollohning xalifasi bo‘lishdek oliy maqomning berilishi, Olloh barcha farishtalardan ustun ko‘rib mukarram aylashi natijasida Iblisning ilk bor Olloh huzurida Odam (a.s)ga hasad qilishi, mana shu uchlik yer yuziga tushirilganda abadul-abad o‘zaro dushman bo‘lishi, Odam avlodlari Olloh marhamatiga qayta erishishi uchun hidoyat yo‘liga kirishi lozimligi haqida aniq ko‘rsatma berilgan. Bu Qur’oni karimning “Baqara” surasi 30-oyatida shunday bayon qilinadi: “Odamga sajda qilingiz!” – deb buyurishimiz bilan ular sajda qildilar. Faqat Iblis bosh tortib, takabburlik qildi va kofirlardan bo‘ldi”<sup>1</sup>. Chunki Odam (a.s)ga pokiza bir juft Momo Havvoning yaratilishi, “Lavhul-mahfuz”da bitilmish ilk uchrashuvlari, jannatda baxtiyor onlarni boshlaganlari Iblisning halovatini buzgandi. Odam (a.s) va Momo Havvoning baxtiyor lahzalari uzoqqa bormadi, Iblis ularni Yaratgan izni bilan yo‘ldan ozdirishga erishdi. Shundan so‘ng, “Tushingiz!” hukmi yangradi. Ayni shu lahzadan boshlab bashariyat olamiga Odam qadami yetdi va Odam avlodlari bilan Shayton o‘rtasida abadiy konflikt boshlanib to‘qiyomatgacha davom etishi ma’lum bo‘ldi.

Adabiyotshunos U.Jo‘raqulov ilohiy xabarda kelgan ayni uchlik keyinchalik adabiyotdagi an’anaviy uchlik obraziga asos bo‘lganini ta’kidlaydi. “Voqean, “Qur’oni karim”ning “Baqara” surasi, 36-oyati tarkibida keladigan: “Bir-biringizga dushmansiz”, degan Olloh kalomi, bevosita, Uning o‘zi tomonidan yaratilgan uch yaratiqqa – Odam (a.s), Momo Havvo va Iblisga qaratilgan edi. Keyinchalik Sharq adabiyotidagi oshiq-ma’shuqa-raqib uchligiga aynan shu voqea asos bo‘ldi”<sup>2</sup>. Ayni uchlikning badiiy asarlarga ko‘chishiga sabab odamzotning ideal shaxslarga bo‘lgan intilishi bo‘ldi. Obraz-triada G‘arb adabiyotida ham, Sharq adabiyotida ham turli darajalarda qayta ishlandi. “Oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazi davrdan davrga, asardan asarga o‘tib, ijodkor konsepsiyasiga asosan ba’zi o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa ham, lekin obraz-triadaga xos muayyan xususiyatlarni o‘zida saqlab kelmoqda.

“Oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazlarining ilk shakllanish va takomil jarayonlari, bizningcha, quyidagilarda ko‘rinadi: a) oshiqning ilk oliy ko‘rinishi insonning Yaratganga bo‘lgan ishq, uning ma’rifatiga oshuftalik holati, bu yo‘lda Iblisning to‘siq bo‘lishi namoyon bo‘ladi; b) mifda bu tizim spetsifikasi muayyan

<sup>1</sup> Куръони карим. Маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Сано-стандарт, 2021. – Б. 6.

<sup>2</sup> Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа, 2015. – Б. 156.

o'zgarishga uchraydi, uchlik obrazlar funksiyasi murakkablashadi, ularda sintezlashuv, transformatsiyalashuv holatlari kuzatiladi; v) folklor namunalari, xususan, eposda oshiq, xalq qahramoni, millat jonkuyari, oila boshi, millat otasi, millat onasi (millat sha'ni, oila nomusi)ning sevikli yori sifatida ko'rinadi; g) mumtoz epik talqinda esa oshiq Haq jamoliga intiluvchi solik, ma'shuqa ma'rifat mansha'i, oshiqning Yaratganga yetishish yo'lidagi vosita, oshiqning sevimli yori vazifasini bajaradi; d) ilohiy, folklor manbalari, hatto keyingi yozma romanlarda ham raqib oshiqni ma'shuqadan uzoqlashtiruvchi, oshiqqa qarshi ma'shuqaga talabgor, yovuzlik manbai sifatida keladi.

Ilohiy haqiqatlar unutilgan paytda uchlik tizimi ham miflashadi. Yunon mutafakkiri Arastu mifni "haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on", degan fikrni aytadi. Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida mazkur masala yuzasidan bir qancha fikrlar bildirilgan. Masalan, adabiyotshunos U.Jo'raqulov o'zining qator tadqiqotlarida mif naqlning buzilgan shakli degan qat'iy xulosani ilgari suradi va ilmiy asoslaydi. Ya'ni, avval Yaratguvchi tomonidan yuborilgan, Payg'ambarlar (s.a.v.) vositasida yetkazilgan shariat – naql bo'lgan. Keyinchalik naql buzilib, ko'pxudolik ifodasi o'laroq mif paydo bo'lgan<sup>1</sup>. Folklorshunos Shomirza Turdimov ham keyinchalik shu fikrni davom ettirib, quyidagi fikrni ilgari suradi: "Mif manbasini "Ilohiy kalomlar"ga bog'lab anglaymiz. Mif asl diniy ta'limot izdan chiqqan joydan boshlanadi"<sup>2</sup>.

Mif haqidagi yangicha fikrlar, nazariy xulosalarni muqoyasaviy usulda umumlashtiradigan bo'lsak, keltirilgan mavjud fikr-xulosalarning barchasi bir-birini davom ettiradi, to'ldiradi. Demakki, mif ilohiy xabarlarining buzilishi, noto'g'ri talqin qilinishi natijasida kelib chiqqan. Ilohiy kitoblarda kelgan xabarlar naql buzilgan, to'g'ri ta'limot unutilgan johiliyat davrlarida o'zgartirilgan. Umuman, mifga dinning buzilgan shakli deb qarash to'g'ri bo'lishi bilan birga, mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligi yetib kelgan eng muhim xulosalardandir.

Mifning vujudga kelishi haqidagi yangi xulosalarning tadqiqotimiz uchun muhim jihati shundaki, ilohiy kitoblardagi kabi mif va afsonalarda ham "oshiq-ma'shuqa-raqib" uchlik tizimi uchraydi. Dindagi axborotlarning buzilishi, o'zgartirilishi, yolg'onlarga o'ralishi natijasida ayrim xalqlarning miflarida buzilgan shaklda kelishi, ayrim hollarda "oshiq-ma'shuqa-raqib" funksiyasining sintezlashuvi va transformatsiyalashuvi kuzatiladi. Mifologik manbalardagi uchlik tizimini quyidagi shakllarga ajratish mumkin: birinchi shaklida, "oshiq-ma'shuqa-raqib" uchlik tizimining mifologiyada bir butun holda ko'rinishi. Bunda ilohiy xabarlardagi ayni uchlik faqat tizim sifatida o'tadi va ularning atrofida muayyan voqealar kechadi, "oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazlarining yo'li tutashadi; ikkinchi shaklida, "oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazi alohida-alohida kelishi: ilohiy xabarlardagi biz yuqorida ko'rib o'tgan Odam (a.s), Momo Havvo va Iblis

<sup>1</sup> **Нақл** сўзининг луғавий маъноси: *келтириш, откажиш, таржима, анъана* деган мазмунларни ифодалайди. Истилоҳий маънода эса куйидагича: Яратгувчи томонидан ато этилган ақл билан банд Раббисини ўзи топиши лозим, лекин Яратгувчи бандасига карам қилиб, пайғамбарлар орқали нақлни ҳам берди. Демак, нақл Аллоҳ томонидан юборилган кўрсатмалар (Жўрақулов У. Ишқ қисмати шу азал-абад. // "Тафаккур" журнали, 2014. № 3. – Б. 54-61).

<sup>2</sup> Турдимов Ш. Фольклор сабоқлари. // Халқ сўзи. 2021. № 140.

xususiyatlari alohida-alohida mifologik obrazlarda aks etishi va ularning yo‘li kesishmasdan, o‘z doirasida harakatlanishi; uchinchi shaklida, bitta obrazda ham oshiq, ham ma’shuqa yoki raqibning xususiyatlari birgalikda namoyon bo‘lishi; to‘rtinchi shaklida oshiq yoki ma’shuqa yo raqib tusini o‘zgartiradi.

Keyinchalik mazkur uchlik tizimi xalq qissalari va dostonlarida kanonlashib epik ko‘lamdorligi oshib borganini ko‘ramiz. Epos janrining spetsifikasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng bo‘rtib ko‘rinadigan jihat, aynan milliylikning aks etishida namoyon bo‘ladi. Rus olimi M.Baxtin fikricha, epos dunyosi “ota-bobolar” va bobokalonlar”, “birinchilar” va “eng yaxshilar” dunyosidir<sup>1</sup>. Demak, xalqning eng yaxshi ideali sifatida ota-bobolar o‘tmishi turadi. Ya’ni: “Epik o‘tmishni o‘zgartirish, qayta idrok etish, qayta baholash mumkin emas. Bir so‘z bilan aytganda, eposning aytuvchisi va tinglovchisi mutloq o‘tmish kishilari, ular boshdan kechirgan voqelik bilan muloqotga kirishar ekan, unga ideal sifatida qaraydi, uni o‘z zamonasi, shu zamona kishilari bilan solishtiradi. Bu jarayonda esa epos voqeligi va qahramonlarini emas, o‘z-o‘zini qayta idrok etadi, baholaydi”<sup>2</sup>. Epos bevosita millat taqdiri bilan bog‘liq ekan, “oshiq-ma’shuqaraqib” obrazlari shu maqsadga ko‘ra asar markaziga qo‘yiladi. Haqiqatan ham, eposlarda kelgan oshiq millat qahramoni sifatida uchlik tizimining asosiy o‘rinida turadi. Uchlik tizimining mukammal tasviri “Alpomish”da ko‘rinadi. Chunki bu tizimga xos bo‘lgan ilk uchrashuv va sevib qolish, ayriliqda kechgan iztirobli onlar, oshiqning qaytishi, yana sevishganlarning visolga erishuvi kabi masalalar bir tizim sifatida, aynan, “Alpomish” dostonida mukammal aks etgan. Millat taqdiri Alpomish obrazida millatni himoya qilish bilan bog‘langan bo‘lsa, Barchinoyda qalmoq yurtida o‘ziga qo‘shib millatni ham qul qilmaslik, Kashal yurtidagi ildiz otgan johillik qo‘lida xalq ma’naviyatini o‘ldirmaslik, Surxayil kampir, Ko‘kaldosh, O‘ltontoz, Qalmoqshoh kabilarda esa hiyla bilan nafaqat oshiqni yengish, millat kelajagiga ham to‘siq bo‘lish, bo‘ysundirish, xalq birdamligiga nifoq solishda ko‘rinadi. Epos dunyosiga ko‘chgan raqiblar millatga qarshi qo‘yilishi, millatni parokanda qilish, yo‘q qilishga qaratilgan kuch sifatida maydonga chiqadi.

Bobning ikkinchi fasli “*Xamsa*” dostonlarida “oshiq-ma’shuqaraqib” obrazining epik talqini” deb nomlangan. Bunda, mumtoz epik matnning mukammal namunasi o‘laroq, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ayi Sayyor”, “Saddi Iskandariy” dostonlari tahlili bilan cheklanilgan. Dostonlarda “oshiq-ma’shuqaraqib” uchlik tizimining o‘ziga xos jihatlariga e’tibor qaratilgan.

Adabiyot tarixiylik prinsipi asosida shakllanadi. Zamonaviy o‘zbek romanlarining taraqqiy etishida adabiyot tarixi muhim sanaladi. Ya’ni, tarixiylik prinsipi asosida janrlar, obrazlar taraqqiy etib keladi. Zamonaviy adabiyot asoslari mumtoz adabiyot tarixiga borib taqaladi. Buni janrlar misolida, yoki obrazlar sistemasiga olib qaraydigan bo‘lsak ham turli asoslarini topishimiz mumkin. Katta

<sup>1</sup> Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари (Рус тилидан У. Жўракулов таржимаси). – Т.: Akademnashr, 2015. – Б.18.

<sup>2</sup> Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Ф.Фулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.– Б.83.

janrlar adabiyotning kuchini, badiiy quvvatini belgilab beradi. Epos, doston, “Xamsa”, romanlar ana shunday janrlardan hisoblanadi. Aynan syujet, obrazlar tizimi epos, “Xamsa” dostonlari va roman janrlarini bir qadar yaqinlashtiradi. Bitta “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazlar tizimiga e’tibor qiladigan bo’lsak, epik tafakkurdagi katta janrlarni birlashtirib turuvchi muhim komponent ekanligi ayonlashadi. Demak, bugunning romani qadimgi eposning, “Xamsa” dostonlarining vorisi, davomchisi sifatida adabiy jarayonda harakat qiladi. Mumtoz dostonchilik dastlab, alohida dostonlar yaratish bilan boshlangan bo’lsa, keyinchalik besh dostondan tarkib topgan “Xamsa” yaratish an’anaga aylandi. Ushbu an’anani Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy ijodida ko’rish mumkin. “Xamsa” besh dostondan iborat keng qamrovli asar bo’lgani uchun unda muallif ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-falsafiy, umumbashariy qarashlarini mukammal yoritish imkoniyatiga ega.

Jumladan, Alisher Navoiy “Xamsa”si o’zigacha yaratilgan dostonlardan anchayin farq qiladi. Shoir mumtoz dostonlaridagi obrazlar orqali o’z ma’rifiy ideallari, hayotiy konsepsiyasini badiiy talqin etgan. Sharq-islom muhitida ulg’aygan shoir ijodida tasavvufiy qarashlar yetakchilik qiladi. Mumtoz dostonchilikda “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchligi asar markaziga chiqadi va ishq konsepsiyasi ilgari suriladi. “Oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazi esa aynan mumtoz dostonchilikda, xususan, Alisher Navoiy “Xamsa”sida mohiyat e’tibori bilan ilohiy manbalarga yaqinlashdi. Ushbu obrazlar negizida Qur’oni karim asosidagi sof hidoyat yo’li ko’rsatildi, Ollohga bo’lgan ilohiy ishq kuylandi. “Xamsa” dostonlaridagi uchlik tizimida Bahromshohga ishqda to’siq nafs, Farhod va Majnun Ollohni anglashi uchun mazhar Shirin va Layli, Iskandar uchun haqiqiy ma’shuqa Olloh, shuning uchun “Saddi Iskandariy”da Shirin va Layli darajasidagi ayol obrazi yo’q. Navoiy “Xamsa” dostonlarida “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchligida tasavvufdagi ishqning uch darajasini asos qilib olganini ko’rish mumkin. “Xamsa”dagi oshiqlar tizimi Bahromshoh, Farhod, Majnun, Iskandarga qadar bosqichma-bosqich yaratilishda ilohiy manbaga yaqinlashib boradi. Bahromshoh taxt vorisi sifatida, Farhod ishq bilan, Majnun ilohiy jununlik bilan, Iskandar valiylik taqdiri ila ziynatlandi. Hazrat Navoiy “Saddi Iskandariy”da Iskandar obrazini yaratar ekan, Qur’oni karimga tayanadi. Iskandarga kelganda oshiq mukammal chin oshiq darajasiga chiqdi. Iskandar umrini dunyo sir-sinoatini bilishga sarfladi va ilmda yuksaklikka erishib, valiylik, nabiylk maqomiga ko’tarildi. “Xamsa” dostonlarida “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazlari mohiyat jihatdan ilohiy manbalarga yaqinlashdi, ma’shuqaga bo’lgan ishq chin ma’noda Yaratganga qaratildi. Natijada mazkur dostonlardagi “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazlari qat’iylashgani, kanonlashgani va bu jarayon qaysidir darajada mustaqillik davri o’zbek romanlariga ham o’tgani, shu bilan birgalikda uchlik tizimida yangicha yondashuvlarni ham o’zida aks ettirgani, obrazlar o’zining ma’lum genetik omillarini saqlab qolganini ta’kidlash lozim.

Dissertatsiyaning **“Hozirgi o’zbek romanlarida “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazining o’rni va badiiy vazifasi”** deb nomlangan ikkinchi bobi uch faslni o’z ichiga oladi. *“Obraz-triadaning ilk romanlarda badiiy aks ettirilishi”* nomli ilk faslida obraz-triadaning ijtimoiy, badiiy funksiyasi tahlilga tortilgan.

Vadud Mahmud “Tark shoiri - Ajziy” maqolasida shunday yozadi: “Bu shoirimiz ham oshiqdir. Faqat buning ishq u na tasavvuf ishqidir, na realist shoirlarning zohiriy ishqidir. Shoirimiz oshiqdir, ma’shuq esa xalqdir, millatdir. Millati va xalqig‘a muhabbati uning ishqidir. U ishq esa bizga shuni bildiradir. Ajziy shu “tarzi tafakkur”i bilan adabiyotni ijtimoiylashtirmak va uni jamiyat uchun foydali bir shaklga so‘qmoq istaganini bildiradir”<sup>1</sup>. Maqolada ishq funksiyasining ijtimoiylashuvi haqidagi fikrlar ilgari surilgani, tadqiqotimiz uchun muhim hisoblanadi. Ayni obrazlar takomili, oshiq-ma’shuqa-raqib tizimiga xos sintezlashuv hamda transformatsion jarayonlar Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanlarida yaqqol ko‘rinadi.

O‘zbek adabiyoti tarixida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani yangilik bo‘ldi. Chunki roman yozish an‘anasi bunga qadar milliy adabiyot an‘analarida yo‘q edi. Qodiriy romanining yangiligi, roman syujetining asosi ilohiy manbalardan oziqlanishi bilan belgilanadi. Qodiriy romanchilikda Otabek orqali tarixiy-an‘anaviy tamoyillarga tayangan holda sharqona oshiq obrazini yaratadi. Asardagi “uchrashuv”, “ayriliq”, “visol” motivlari Qur‘oni karimda kelgan “ilk syujet”ga borib tutashadi. Otabek Sharq-islom muhitida tarbiya topgan, teran fikrli, vaziyatga to‘g‘ri va adolatli baho bera oladigan, oshiqqa xos sifatlarga ega. U roman markaziga kirib kelishidan oshiqning barcha talablariga javob beradigan obraz sifatida ko‘rinadi. Asarda Otabek obrazida ikki yo‘nalish: oshiq maqomi bilan birga ijtimoiylik qorishib ketganini ko‘ramiz. Ijtimoiy hayotda oshiqni yurt qayg‘usi qiynaydi. Qipchoqlar qirg‘iniga qarshi bo‘lgan bek, otasi Yusufbek hojining yurtboshilar qatorida shu qarorga kelgan deb o‘ylashi uni ancha cho‘ktirib qo‘yadi. Asarda Otabek Xudoyorxon, Musulmonqul, Azizbek haqida haqqoniy fikrlar bildiradi. Otabek oshiqqa xos o‘lim topishi, ya‘ni shahid bo‘lishi ijtimoiy hayotdagi shaytanat (mustamlaka davlat) bilan kurashda yuz beradi. Chor Rossiyasi O‘rta Osiyoni bosib olishni Avliyo ota qarorgohidan boshlagan. Aynan shu yerda Otabek shahid ketadi. Tarixiy-an‘anaviy ma’shuqa obrazi oshiq uchun ma‘naviy kuch, energiya, quvvat manbai sifatida talqin qilinadi. Kumushbibi Otabekka raqibini yengishda xuddi Barchinoyga o‘xshab ma‘naviy ko‘mak berganini kuzatamiz. Buni muallif Otabekning maktubi orqali beradi: “Men o‘zing‘a bag‘ishlang‘an kuch manbaini juda yaxshi onglar edim, mendagi bu o‘zgarish manbai uy ichida uxlag‘uchi bir malak edi... Siz edingiz!”<sup>2</sup>

Adabiyotshunos Matyoqub Qo‘shjonov Homid obrazining ig‘vo-nayranglari Otabek va Kumushning muhabbati kuchini ko‘rsatishga xizmat qilgani haqida haqli fikr bildiradi: “O‘tkan kunlar” romanida Homid Otabek ustidan ig‘vo yuritadi. Bu ig‘vo natijasida Otabek ikki marta og‘ir vaziyatlarga tushib o‘limga hukm qilinadi. Bu vaziyatlar Otabek xarakteridagi yozuvchi ta‘kidlamoqchi bo‘lgan olijanob xususiyatlarni bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qiladi”<sup>3</sup>. Demak, romandagi raqib obrazini yaratishda an‘anaviylik tamoyili yetakchilik qiladi.

<sup>1</sup> Махмуд В. Тарк шоири-ажзий. <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/jadid-matbuoti/782-maqola.html>.

<sup>2</sup> Қодирий А. Ўткан кунлар. – Т.: Наврўз, 2019. – Б. 266.

<sup>3</sup> Қўшжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. Иккинчи жилд. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б. 192.



Raqibdagi har bir holat, aynan Iblis faoliyatini takrorlaydi. Homid, Jannat xola, Sodiq, Mutalni o‘z ortidan ergashtirib, o‘g‘rilikka boshlaydi. “Dushanba kun kechasi” faslida ma’shuqa yotgan uying tagini teshib, egrilik sari yo‘l olgan shayton va uning gumashtalari yer ostida Otabek tomonidan o‘ldiriladi. Bu Iblis va unga ergashuvchilarni xuddiki ularning azaliy makoni yer osti (xaos) olamiga itarib yuborgandek, taassurot qoldiradi.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazlari Qodiriyning ikki romanidagi uchlikni tarixiy-an‘anaviylik nuqtayi nazaridan takrorlamagan, ko‘proq jahon va rus romanchiligi an‘analariga tayangan. Cho‘lpon jahon adabiyoti an‘analarini ijodiy o‘rganishi natijasida, ijtimoiylikni ramziylashgan holatda birinchi marta “Kecha va kunduz”da qo‘llagan. “Kecha va kunduz” o‘zbek nasridagi ilk ijtimoiy-psixologik roman sifatida dunyoga kelgan. Adabiyotshunos D.Quronovning roman haqidagi qarashlari biz aytmoqchi bo‘lgan fikrga to‘la monand keladi: “Romanchiligimizning ilk cho‘qqisi – “O‘tkan kunlar”dan farq qilaraq, “Kecha”da voqealar silsilasi emas, inson xarakteri, uning ruhiyasida kechayotgan jarayonlar markaziy o‘rin tutadi. Cho‘lponning romanchiligimiz taraqqiyotiga qo‘shgan eng muhim yangiliklaridan biri ham shundadir”<sup>1</sup>.

Muallifning maqsadini yuzaga chiqarish, albatta, Zebi va Miryoqub obrazi atrofida kechadi. Har ikki obraz atrofida uchlik tizimi bor. Faqatgina tizimdagi qaysidir obrazning xususiyati, harakatlari sezilmaydi yoki ramziylashadi, ijtimoiylashadi. Aynan shu jihatlari bilan oshiq, ma’shuqa, raqib uchligi yangilanadi. Zebi – ma’shuqa, go‘zal siyrati, ashula aytish mahorati, nazokati, ishq haqidagi orzu-o‘ylari bilan Kumush yoki Ra‘nodan qolishmaydi. Lekin uning erki bo‘g‘ilgan, ijtimoiy jihatdan tenglik yo‘q jamiyatning erksiz, ixtiyorsiz vakilasi. U taqdirning hukmi oldida ojiz, ijtimoiy muhitga mag‘lub. Aravachi yigit O‘lmasjonga muhabbat bog‘lasa-da, o‘zidan ancha katta, ko‘p xotinli Akbarali mingboshiga tegishga majbur bo‘ladi. O‘lmasjonning oshiq sifatidagi harakati deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Raqib Akbarali timsolida ramziylashadi, shariat talablari bo‘yicha yashovchi, Eshonning aytganlarini so‘zsiz bajaruvchi Razzoq so‘fi xonadoni orqali jamiyatning diniy mutaassiblashgani, erkinlikka intilmasligi, e‘tiqodni noto‘g‘ri targ‘ib qilinishi oqibatida ayollarning ayanchli taqdiri ochib beriladi.

Bobning “*Oshiq-ma’shuqa-raqib*” obrazi talqinida ijtimoiylik tamoyili” deb nomlangan ikkinchi faslida Oybekning “Qutlug‘ qon”, Abdulla Qahorning “Sarob” romanlari tahlilga tortilgan. “Qutlug‘ qon” romanida syujet chizig‘i Yo‘lchi va Mirzakarimboy o‘rtasidagi ziddiyat bo‘ylab harakatlanadi. Ikki qahramon o‘rtasidagi konflikt asarning mazmun-mohiyatini ochib beradi. Oshiq obrazi an‘anasi Yo‘lchida bir qancha xususiyatlar bilan asoslanadi. Oshiq asar markazida harakatlanadi. Oshiqni harakatlantiruvchi kuchda esa ishq va ijtimoiylik sintezlashgan. Sinfilylik nuqtayi nazaridan Yo‘lchi – xizmatkor, Mirzakarimboy – boy qatlamga mansubligi ularni bir-biriga qarshi qo‘yishning asosi sanaladi.

---

<sup>1</sup> Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004. – Б.157.

Yo‘lchida boshqa oshiq'larga nisbatan ijtimoiylik yuki og‘irroq. Negaki, Yo‘lchi orqali yozuvchi yangi hayot uchun kurashchi, o‘zbek mehnatkashini yaratgan. O‘sha paytda yangi tuzum zo‘r berib, ijtimoiy tenglikka, ishchilar sinfini shakllantirishga, jamiyatda hamma teng huquqlarga egalik barobarida xususiy mulkni yo‘qotishga, boylarning mol-mulkini musodara qilishga intilayotgan edi. Biz Yo‘lchi obrazini ikkita yo‘nalishda harakatlanishini kuzatamiz. Birinchisi, shaxsiy hayoti va insoniy fazilatlari bilan bog‘liq. Shu sifatleri bilan milliy xarakter darajasiga ko‘tarilgan obraz. Yo‘lchining ikkinchi jihati ijtimoiy ko‘lamda sodir bo‘ladi. U kambag‘allik tamg‘asi bilan boshlangan yukni sinfiy kurashda ishchilar va boylar to‘qnashuvigacha olib boradi. Dalada ishlayotgan Yo‘lchi bexosdan Gulnorni ko‘rib qoladi. “Yo‘lchi katta to‘nkani yalang‘ochlab, ildizlarini, yo‘g‘on tomirlarini bolta bilan urib, yerdan ayirar ekan, o‘zidan o‘n besh-yigirma qadam narida, bedapoya etagida, yoniga paqirini qo‘yib, unga yashirincha tikilib turgan bir qizga ko‘zi tushdi. Qiz paranji o‘rniga churik bir yaktak yopingan edi. Egnida eski, lekin oq chit ko‘ylak. Oyoqlarida juda eski kalish”.<sup>1</sup> Ma‘shuqa tasvirida ijtimoiy holati kiyim-kechaklarga urg‘u berish orqali ayonlashgan. Yo‘lchiga munosib ma‘shuqa o‘zi mansub kambag‘al, ishchilardan bo‘lishi kerak edi. Tenglik asosiy g‘oya sifatida ilgari surilayotgan bir paytda ma‘shuqa va oshiq bir sinf, raqib boshqa bir sinfga mansubligi zamon talabini ham bajaradi. Raqib – Mirzakarimboy bir necha jihatdan oshiqqa qarshi. Birinchidan, Mirzakarimboy ayyor va tadbirkor, Yo‘lchi esa sodda va mehnatkash. Ikkinchidan, raqibning qilmishlari nopok, u boyliklarini xizmatkorlarni beshafqat ishlatish evaziga topadi. U Mirzakarimboy nomini olish uchun qancha haqlilarning haqqini urib qolgan. Yo‘lchi esa, garchi yaqin odami bo‘lsa ham, haqqi urib qolinganlar qatorida. Uchinchidan, raqibning ma‘naviy dunyosi nopokligi uchun qarindoshlik rishtalarini ham tan olmaydi.

Abdulla Qahhorning “Sarob” romanidagi “oshiq-ma‘shuqa-raqib” obrazlar tizimining takomili bevosita an‘anaviylikdan chekinilgani, G‘arb tamoyillari ustunlik qilganini ko‘rsatadi. Oshiq – Saidiy, ma‘shuqa – Munisxon, raqib – ijtimoiy-siyosiy tuzum. Ijtimoiy-siyosiy tuzumning ramziylashgan raqib sifatida oshiq va ma‘shuqaga ta‘siri turli qarashlarga ega bo‘lgan qahramonlar orqali beriladi. Saidiy va Munisxonning bitta sinfdan emasligi, oshiqning ma‘shuqa doirasiga kirishga intilishi, ma‘shuqa nazarida eng yuqori pog‘onadagi erkak sifatida qalbini zabt etishga urinishga olib keladi. Saidiy obrazida jahon romanchiligi, xususan, amerikalik yozuvchi Jek Londonning “Martin Iden” romanidagi Martin obrazi ta‘siri seziladi. Ma‘shuqa esa ko‘p jihatdan shu romandagi ma‘shuqa – Ruf obrazini eslatadi. Birinchi navbatda, oshiqqa xos ruhoniyatning yo‘qligi bu obrazning G‘arbdan ko‘chganligiga ishora qiladi. Sharq adabiyotida an‘anaviy oshiqlar xalq ideali sifatida tasvirlanadi. Saidiyda esa ich-ichidan yemirilgan jamiyatga qarshi kurashishga ham, uning vakiliga aylanishga ham rag‘bat yo‘q. Sho‘roviy hukumat ta‘sirida yashagan Saidiy ruhiyatida yolg‘izlik, iste‘dodini to‘g‘ri yo‘naltira olmaslik, o‘zi mansub jamiyatga sig‘maslik holati kuzatiladi. Saidiyning muhitga moslasha olmasligi Sharif, Ehson bilan

<sup>1</sup> Ойбек. “Кутлуф қон”.– Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 29.

munosabatida ko‘rinadi. Saidiydagi ruhiy evrilish atrofidagi odamlardan uzoqlashishga olib keladi. Saidiyning psixologik holati o‘z joniga qasd qilishga undaydiki, bu Sharq muhitida qattiq qoralanadi.

Bobning *“Oshiq-ma’shuqa-raqib”* obrazi takomilida milliy va jahon romanchiligining o‘rni” deb nomlangan so‘nggi faslida, “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazlarini tasvirlashda milliy va jahon romanchiligining ta’siri o‘rganildi. Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazlar spetsifikasini belgilashda, demak, ikki xil yo‘nalish: tarixiy-an‘anaviy tamoyil hamda jahon romanchiligi ta’siridagi takomiliga e’tibor qaratildi. Qodiriyning *“O‘tkan kunlar”* romanidagi uchlik tizimidagi an‘analar, Oybekning *“Qutlug‘ qon”* romanidagi triada obrazlaridagi ijtimoiylik Xurshid Do‘stmuhammadning *“Bozor”* romanidagi Fozilbek, Qadriya obrazlariga ko‘chgan. Masalan, Otabekdagi oshiqqa xos xususiyatlar Fozilbek obrazida ham kuzatiladi. Otabek zamonasining ilm-ma‘rifatli, madaniyatli, ilg‘or odamlaridan. Otabek zamonasining har qanday muammosiga to‘g‘ri baho bera olishi bilan xarakterlanadi. Fozilbekning bu jihatdan Otabekka yaqin obraz ekanligi ko‘rinadi. Fozilbek bozordagi odamlarni doimiy tadqiq etishi, fozil jamiyatga intilishi, bozordagi odamlar bilan muloqotda faqat tafakkuriga tayanishi kabi fazilatlari bilan Otabekdan qolishmasligini ko‘rsatadi.

Raqibga qarshi oshiqning kurash yo‘lida ma’shuqaning muhim o‘rin tutishi, ma’shuqa muayyan bir energiya, quvvat manbai bo‘lishi Qadriya va Shahnoza obrazlarida namoyon bo‘ladi. Bu *“O‘tkan kunlar”* romanida Kumushda ham, *“Qutlug‘ qon”* romanida Gulnorda ham kuzatiladi. Umuman, ma’shuqaning quvvat manbai qilib ko‘rsatilishi tizimli ko‘chib kelayotgan an‘anaviy xususiyat. Ijtimoiy-psixologik tasvir *“Tushda kechgan umrlar”*, *“Bozor”*, *“Jaziramadagi odamlar”*da ham kuzatiladi. Dastlabki ikki romanda oshiq obrazi, uchinchi romanda esa ma’shuqa obrazining ijtimoiy-psixologik yo‘nalishda xususiyatlari ochib berilgan. *“Kecha va kunduz”* romanidagi uchlik tizimning ayrim xususiyatlari mustaqillik davri romanlariga ko‘chdi. Jahon romanchiligi an‘analariga ko‘ra oshiq yoki ma’shuqaning boshqa inson bilan oila qurishi, o‘rtaga nikoh masalasi kiritilishi *“Kecha va kunduz”*, *“Sarob”* romanida ham kuzatiladi. *“Visol”* motivi Saidiyning o‘limi tufayli yakuniga yetmaydi. Chunki Saidiy psixologik bosim, ruhiy buzilish tufayli an‘anaviy oshiqlardan mutlaqo farqli ravishda o‘z-o‘zini o‘ldiradi. Mustaqillik davri romanlariga ayni jihat ko‘chgan.

Mustaqillik davri romanlarida uchlik tizimda eng ko‘zga tashlanadigan xususiyatlardan yana biri – raqib obrazining konkret shaxs orqali berilmasligi, oshiq va ma’shuqa visoliga to‘siq jamiyatning buzuqligi sifatida belgilanishi bo‘ldi. Raqibning aniqligi unga xos xususiyatlarni aniq ko‘rsatish imkonini beradi. Jahon romanchiligi an‘analari ta’sirida raqibning umumiylikdan individuallikka siljigani bevosita *“Kecha va kunduz”*, *“Sarob”* romanlaridagi raqib obrazi bilan bog‘liq. Bu bizga F.Stendal, O. de Balzak, G. De Mopassan, J.London asarlaridagi bosh qahramonlarni eslatadi. Raqibning muayyan shaxsdan siyosiy tuzumga aylanishi, umumiydashishi uning harakat doirasi kengayishiga, belgilari kuchayishiga va oshiq-ma’shuqa o‘rtasida mustamkamroq to‘siqqa aylanishiga olib keladi. Mustaqillik davri romanlarida sinfiy kurash va partiyaviy yondashuvsiz

alohida shaxs ruhiyatini tadqiq qilish ustuvorlik qildi. Buning natijasida uchlikda an'anaviy obrazlarga xos ilohiy ruhoniya ham, jahon adabiyotidan ijodiy ilhomlangan holda qusur va kamchiliklar, o'zgargan, ramziylashgan holatlarda ham o'z aksini topdi. Biror ijtimoiy tuzumning afzalligini ko'rsatish emas, balki tuzum oshiq va ma'shuqaning saodatiga qarshi qo'yilishi qoralandi, inson sifatida barcha haq-huquqlardan foydalanishi badiiy niyatga aylandi, oshiq, ma'shuqa obrazini alohida shaxs sifatida talqin qilish orqali jamiyatni muayyan shaxs ehtiyojlaridan ustun qo'yish, erkin yashash imkoniyatini cheklash noto'g'ri ekanligi ta'kidlandi. Aytish mumkinki, sovet davri o'zbek adabiyotida uchlik obraz tizimi nisbatan formallashgan, ijtimoiylashgan bo'lsa, mustaqillik davrida yozilgan O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar", X.Do'stmuhammadning "Bozor", L.Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romanlaridagi "oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazi milliy folklor va mumtoz adabiyot an'analari yo'sinida davom etgani, islomiy ma'rifat bilan boyigani va jahon romanlari bilan sintezlashgani kuzatiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Oshiq-ma'shuqa-raqib**" obrazi talqiniga xos poetik yangilanishlar" deb nomlanib, uchta fasldan iborat. Dastlabki fasli "*Tushda kechgan umrlar*" romanida "*oshiq-ma'shuqa-raqib*" obrazi" deb nomlanadi. Mazkur romanda uchlik tizimidagi oshiq fojiasining ijtimoiy tuzum bilan parallel badiiy tasviri haqida fikr yuritiladi. Asardagi ushbu obraz boshqa an'anaviy oshiqlardek emas, shunga ko'ra, uning ishq ham ijtimoiylashgan. Ma'shuqa xarakteri yetarli darajada yoritilmagan, raqib sifatida ijtimoiy tuzum, afg'on urushi oshiqqa qarama-qarshi qo'yiladi. Roman syujetida "uchrashuv", "ayriliq", "visol" motivlari noan'anaviy tarzda, tartibi o'zgargan holda tasvir etilgan. Asarda oshiq va ma'shuqa oila qurib ham baxtli bo'la olmasligi ayanchli bir holatda tasvirlanadi. Rustanning urushdagi ruhiy holati hayot beshafqat va adolatsiz degan xulosaga olib keladi. Sovet armiyasining soxta sharaflanishlari haqida xizmat davomida bilgan Rustam yolg'onlarni fosh etishni xohlaydi. U borgan sari urush mantiqsizligini tushunib ich-ichidan eziladi. Rustam kundaliklarida Xayriddinni gavdasi mushtdekkina, xudojo'y bola, namoz o'qigisi keladi-yu, atrofdagilardan istihola qiladi, deya ta'riflaydi. Rustam: "Ko'zlari shunaqa samimiyki, ichida g'ubor yo'qligi shundoq ko'rinib turadi. Tank o'qlash emas, boshlang'ich sinf bolalarini o'qitish yarashadi Xayriddinga!", - deganida uning urushga bo'lgan munosabati ko'rinadi<sup>1</sup>. Asarning ko'p o'rinlarida mana shunday tasvirlar orqali muallifning urushga va uning sababchilariga nisbatan munosabati yaqqol ko'rinadi.

Adabiyoshunos U.Normatov asar haqida shunday yozadi: "Urush talqini romanda tamomila yangicha. Avvalgi urush haqidagi asarlardan farqli o'laroq, bu yerda qarama-qarshi turgan kuchlarni do'st-u dushmanga, oq-u qoraga, "biznikilar" va "ular"ga ajratish yo'q, bu yerda g'oliblar-u mag'lublar, qahramonlar-u noqahramonlar yo'q, faqat urush qurbonlari, tuzum, mafkuraviy ayirma, raqobat jabrdiydalari bo'lmish begunoh insonlar bor, xolos"<sup>2</sup>. Rustam do'sti Temurning tana a'zolari kesib tashlanib, tanib bo'lmas darajada

<sup>1</sup> Хошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Т.: Меринос, 2017. – Б. 121-122.

<sup>2</sup> Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 20.

vahshiylarcha o'ldirilganini ko'rgach, butun bu dahshatlarga dosh berolmay qoladi. Chetdan qaraganda bu oilaning buzilishiga, barbod bo'lishiga, Rustanning jismoniy quvvatini yo'qotgani sababday ko'rinishi mumkin, lekin asl sabab uning ruhiyatida. Jismoniy kasallik tuzalishi mumkin, ruh xastaligiga da'vo yo'q edi. Rustanning ruhiy-psixologik holati pishib-yetilib kelgandi, shunday bo'lishi muqarrar edi. Urushdan ruhiy zo'riqish bilan birga nosog'lom qaytgan oshiq fojiasi ijtimoiy fojeliq fonida parallel tasvirlanadi. Bunday usul asar muqaddimasida vafot etgan oshiqni syujet voqealari markaziga qo'yish imkonini beradi.

Bobning *“Uchlik tizimining ijtimoiy-ma'rifiy talqini”* deb nomlangan ikkinchi faslida *“Bozor”* romanida *“oshiq-ma'shuqa-raqib”* obrazlari an'anaviy ma'rifat konsepsiyasi asosida tasvirlangani haqida so'z yuritiladi.

Asarda uchlik obraz ramziylashganini kuzatishimiz mumkin. Oshiq Fozilbek obrazida (millat oshig'i), ma'shuqa Qadriya (kitob, ma'rifat, ma'naviyat), raqib Bozor (ma'naviyatsizlik)da ramziylik bilan berilgan. Yozuvchi tomonidan har bir obrazga berilgan ismlarda ham ramziylik bor. Masalan, Fozilbek, Qadriya, Solih qori, Sabridin, Ayonbek kabilar shular jumlasidan. Yozuvchi oshiq obraziga Fozilbek deb ism berishida hikmat bor. Bu ism arabchadan, bilimdon, dono, zukko, donishmand ma'nolariga ega. Fozil – *“fazl-u karomat sohibi”* ma'nosida keladi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning sifatlaridan biridir. Asarning bir necha o'rinlarida otasi Qosimbek tomonidan *“onang sendek fozil o'g'ilni tug'ib berdi, onang seni fozil qilib tuqqan”* – degan jumalari orqali ismga urg'u beriladi. *“U o'zining fozilligini darhol fahmlamadi, ne sababdan unga *“Fozilbek”* ismi ravo ko'rilganini, uning shaxsi kamoliga fozillikning nechog'li daxli borligini ham bilmadi”*<sup>1</sup>. Oshiq tug'ilishidayoq Sharqqa xos o'z ismi bilan tug'ilgan edi. Tug'ilishi bilan *“Oy qo'nsin-a, boshingga... Kun qo'nsin-a boshingga”* ohangini eshitadi. Garchi yetti pushti bozorchi o'tgan bo'lsa-da, u bozorga mutlaqo begona. Fozilbek dunyoni tushunishga, anglashga urinadi. Uning erta-yu kech bozordan beri kelmasligi ham shundan. Fozilbek o'z zamondoshlaridan farqli ravishda: *“Har kim did-farosatiga yarasha oladi”* deb o'zini ovuntiradi. Fozilbek dunyo, odamlar, tug'ilish va o'lim, hayotning asl ma'nosi, foniq dunyoda odamning missiyasi nimadan iborat kabi savollarga javobni Bozor xronotop (makon-zamon)idan izlaydi. Butun bu tasvirlar Fozilbekning ruhiy-psixologik holati orqali berib boriladi. Oshiq va ma'shuqaning ilk uchrashuvi bozorda sodir bo'lsa-da, lekin ularning visoli raqibdan yiroqda – qiroatxonada edi. Fozilbek o'zi istagan, fozil jamiyat qurish yo'lidagi maslakdoshini ayni damda topganini butun ong-u shuuri bilan his qildi. *“...qiz juda-juda tanish tuyuldi, qayerdadir ko'rganday, hatto uzoq-uzoq suhbatlashganday undan zarracha shu topda qizga gapirmay o'tishi mumkin emasdek, loqal bir og'iz luqma tashlash-u uning taqdiriga (ehtimol, qizning ham taqdiriga!) bitilgandek, izohlab bo'lmas bir majburiyat bilan qizga yaqin bordi...”*<sup>2</sup> Ilk uchrashuv shu tariqa sodir bo'ladi. Oshiq uchun Qadriya bir vosita, uni kutubxonaga yetaklaydigan, ilm-ma'rifatga eltadigan vosita edi. Shuning uchun ham u bilan ilk bor duch kelganida juda tanish tuyuladi. Fozilbek Qadriyaga

<sup>1</sup> Дўстмуҳаммад Х. Бозор. – Т.: “Шарк” нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти, 2000. – Б. 59.

<sup>2</sup> Ко'rsatilgan manba. – Б. 28.

millatni saodatga eltish yoʻlida bir fikrdosh sifatida qaraydi. Raqib sifatida “Bozor” xronotopidagi odamning yoʻqolishi, ot-aravaning chuqurlikka tushib ketgani, sichqonlarning bolalab ketishi, nomaʼlum mahluqning paydo boʻlishi, bularga jamiyat kishilarining eʼtiborsizligi, loqaydligi, befarqligi, bir soʻz bilan aytganda maʼrifatsizligi nazarda tutiladi.

Bobning “*Oshiq-maʼshuqa-raqib*” obrazi ijtimoiy-psixologik funksiyasining *anormallashuvi*” nomli oxirgi faslida “Jaziramadagi odamlar” romanida uchlik tizimining normadan chiqishi, oshiq ham maʼshuqa ham badiiy, maʼrifiy, maʼnaviy strukturasi koʻra yangilanishi, uchlik tizimida oshiqning tushib qolishi, oshiq va maʼshuqa oʻrtasida nikohsiz farzandning tugʻilishi, oqibatda jamiyatdagi anormallik holatining namoyon boʻlishi kabi masalalar tahlilga tortilgan.

Romanda togʻliklarning choʻlni oʻzlashtirishga yuborilishi, paxta siyosatini amalga oshirish uchun butun jamiyatni halokatga yetaklashi koʻrsatiladi. Yerni oʻzlashtirish niyati sarobga aylangan jamiyat, notoʻkis Lolaxon shaxsiyati va hayotini ideallashtiradi. Shunga muvofiq qiz-juvonlarning maʼshuqa Lolaxon va oshiq Oʻroqjon haykalidan oq fotiha olib ketishlari tagi puch tuzumga ishora qiladi. Anormallik oshiq, maʼshuqa, raqib bilan barobar jamiyatda ham sodir boʻladi. Shu bois, jamiyat mezonlardan ogʻadi, bu esa odamlar ruhiyatida ham aks etadi. “Jaziramadagi odamlar” choʻldagi hayot davomida ichkilikka berilishi, ruhiy tushkunlikka tushishi, hayot tarzidan qoniqmasligi, ertangi kundan umidsizligi ijtimoiy normaning buzilishi sifatida koʻrinadi. Romandagi voqealar jaziramadagi odamlar ichidan chiqqan Ergashning oʻgʻli Samad tilidan hikoya qilinadi. U asardagi uchlik tizimdagi oshiq, maʼshuqa, raqibga munosabatini oʻz tasavvuri, hayotiy qarashlaridan kelib chiqib belgilaydi. Har uchala qahramonni Samad orqali tanib olamiz. “Jaziramadagi odamlar” romanida oshiq, oshiq talablariga javob berolmaydi, u qisqa oʻrinda bir koʻrinib tushib qoladi, uning oʻrniga markazga maʼshuqa koʻtariladi. Oshiq va maʼshuqaning nikohsiz farzandli boʻlishi, oshiq uchlik tizimidan tushib qolgach, yosh bolaning oshiq oʻlaroq talqin etilishi, Chingiz Aytmatov “Jamila” qissasidagi talqinni yodga soladi. Lolaxonning sof muhabbatga ishonib, shahar bagʻridan choʻlda yashashga rozi boʻlib kelishi hayotiy asos jihatidan ancha boʻsh. Shunday gʻayrioddiy voqeaga jaziramadagi odamlar koʻzi bilan ijtimoiy tus beriladi.

Lolaxonning soʻnggi soʻzlaridan ayolning hayoti qatorida oʻy-fikrlari ham normadan chiqib ketganini koʻramiz. “Samadjon, sizmi... Ayting... ayting, ularga... men yolgʻiz... Men yolgʻiz edim! Oʻzim bilan oʻzim...”<sup>1</sup>

Romanda “oshiq-maʼshuqa-raqib” tizimidagi anormallik, avvalo, oshiq siyratida namoyon boʻladi. Uning antiqahramonligi, syujet voqealaridan tushib qoldirilishi, chin oshiq sifatida oʻta passiv harakatlanishi koʻzga tashlansa, maʼshuqa ruhiyatidagi zoʻriqish, irodasizlik, oʻjizlik kabilar noanʼanaviy “oshiq-maʼshuqa-raqib” uchlik tizimiga xos anormallikni namoyon etadi.

---

<sup>1</sup>Бўрихон Л. Жазирамадаги одамлар. – Т.: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012. – Б. 296.

## UMUMIY XULOSA

1. Zamonaviy o'zbek romanlarini tadqiq etish "oshiq-ma'shuqa-raqib" uchlik tizimining janr tarixi, poetik takomilini yaxlit holda kuzatish imkonini beradi. Jadid, sovet-o'zbek, mustaqillik davri romanlariga xos o'zgarish va takomil jarayonlari bizga "oshiq-ma'shuqa-raqib" uchligining poetik tadriji, spetsifik o'zgarishlari xususida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

2. "Oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazlari genezisida Odam alayhissalom, Momo Havvo va Iblis haqidagi ilohiy axborot turadi. Mazkur ilohiy xabardagi ayni uchlik keyinchalik adabiyotdagi an'anaviy obrazga: "oshiq-ma'shuqa-raqib" uchligiga asos bo'ldi. Odam (a.s) va Havvo onamizning Olloh huzurida, jannatdagi saodatli onlari "ilk uchrashuv", gunohi sabab yer yuzining turli tomonlariga tushirilgach "ayriliq" va nihoyat bashariyat olamida ne mashaqqatlar bilan bir-birini topgach "visol" onlarini boshdan kechirishdi. Ayni syujet obraz-triadaning keyingi davr adabiyotiga poetik an'ana tarzida davom etishi, estetik mohiyat kasb etishi, janrdan janrga takomillashib, ijtimoiylashib, milliylashib borishini ta'min etgan.

3. "Oshiq-ma'shuqa-raqib" obraz tizimi ilohiy haqiqatlar unutilgan johiliyat davrlariga kelib miflashdi. Ya'ni, mifologik manbalarda ayni tizim buzildi, funksiyalari o'zgardi, o'zining individual xususiyatlarini yo'qotdi, syujet va obrazlar tartibi o'zgardi. Oshiq, ma'shuqa o'zining asl maqsadidan chalg'idi, ularning nazari tamomila boshqa obyektarga qaratildi.

4. "Oshiq-ma'shuqa-raqib" uchlik tizimi xalq og'zaki ijodiga oid janr namunalariga mifologik manbalardan ko'chib o'tdi. Xususan, ertak, xalq qissalari va eposlarda mazkur uchlik tizimi poetik takomillashuv yo'lini bosib o'tdi. Xalq eposlarida "oshiq-ma'shuqa-raqib" uchlik tizimi bir qadar kanonlashib, o'zining asl manbasiga yaqinlashdi. Ilohiy va mifologik manbalardagi "oshiq-ma'shuqa-raqib" tizimiga xos xususiyatlarni o'zida jamlab, sintetik xarakter kasb etadi. Eposlardagi "oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazlari milliylashib, oshiq-millat qahramoniga, ma'shuqa-millat onasiga, raqib-millat dushmaniga aylandi.

5. "Oshiq-ma'shuqa-raqib" uchlik tizimi mumtoz adabiyot namunalarida mohiyatan ilohiy manbalardagi ildizlari bilan tutashdi. Jumladan, mumtoz dostonlarda va "Xamsa" janriga doir namunalarda "oshiq-ma'shuqa-raqib" uchlik tizimi kanonlashib, o'zining individual xususiyatlariga muvofiq badiiy talqin qilindi. Oshiq timsolida samoviy ma'rifat ishq aks ettirildi.

6. "Oshiq-ma'shuqa-raqib" uchlik tizimiga xos badiiy mazmun va shakl jadid adabiyotiga kelib o'zgacharoq shamoyil kasb etdi. O'zining ijtimoiy-estetik, badiiy-individual xossalarini namoyon etdi. Ayniqsa, roman va drama janri namunalarida "oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazlari ijtimoiylashib, real hayot voqeligi fonini aks ettira boshladi. Birinchi o'zbek romani "O'tkan kunlar"da "oshiq-ma'shuqa-raqib" uchlik tizimiga xos an'analar bilan birga ijtimoiy davr fojiasi badiiy talqin qilingan bo'lsa, "Kecha va kunduz" romanida ushbu uchlik tizimi g'arblashdi, millat hayotiga doir ijtimoiy muammolarni nisbatan yevropalashgan odam obrazida ifoda etdi.

7. Sovet davri romanchiligida "oshiq-ma'shuqa-raqib" uchlik tizimi ijtimoiy, sinfiylik g'oyasiga ko'ra tasvirlandi. Oshiq va ma'shuqa kambag'al qatlam

vakillari, raqib boy tabaqa kishisi sifatida talqin qilindi. Bu jihat, “Qutlug‘ qon” romanida qisman, “Sarob” romanida esa kengroq planda namoyon bo‘lgani kuzatiladi.

8. Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchlik tizimi turli aspektida tasvirlandi. Ayni romanlarda folklor, mumtoz adabiyotga xos uchlik obraz an’analari, qahramonlarning individuallashuvi, obrazlarning ramziylashuvi, ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘zgarishi ko‘zga tashlanadi. Jahon adabiyotining ta’siri o‘laroq maydonga kelgan individual uslubiy izlanishlar mazkur uchlik tizimiga erkin yondashish tamoyilini shakllantirdi.

9. O‘.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchlik tizimi davr fojiasi fonida talqin qilinadi. Raqib obrazi funksiyasi urush, siyosiy tuzum va millat sotqinlari qiyofasini oladi. Syujet chizig‘idagi “uchrashuv”, “ayriliq”, “visol” motivini badiiy tashkillashda ijtimoiy-psixologik omillar old planga chiqadi.

10. X.Do‘stmuhammadning “Bozor” romani syujetida “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchlik tizimi g‘arblashib, ramziylik kasb etadi. Roman qahramoni Fozilbek ma’rifat kishisi, Qadriya timsolida ilm, ma’rifat, bozor tasvirida raqibga xos ilmsizlik, jaholat, yovuzlik, bir so‘z bilan, xaos funksiyasi yuklanadi. Asarda uchlik tizimi metaforiklashib, “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazlari milliy turmush muammolari bilan sintezlashib ketadi. Oshiq ma’rifat odami, ma’shuqa ilm-ma’rifat manbai, bozor xronotopi ijtimoiy-fojeliq timsoli sifatida talqin qilinadi.

11. L.Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romani syujetida “oshiq-ma’shuqa-raqib” uchlik tizimi ijtimoiy-psixologik tasvir yo‘siniga ko‘ra anormallashtirishni kuzatiladi. Ya’ni: a) asarda ma’shuqaning syujet markaziga chiqishi, oshiqning nafaoligi; b) O‘roqjon va Lolaxonning nikohsiz farzand ko‘rishi va jafokash bevaning sotsialistik jamiyat tomonidan ideallashtirilishi; d) Lolaxonning O‘roq vafotidan so‘ng, oshiqqa bo‘lgan psixologik izhorlari tasviri; e) asar syujet chizig‘ida Samadning yangasi Lolaxonga ko‘ngil qo‘yishi uchlik obraz tizimi mazmun va shakl xususiyatiga ko‘ra anormallashtirishni ko‘rsatadi.

Umuman, “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazlari tizimi o‘zbek romani va undagi obrazlar koordinatsiyasini belgilovchi, milliy romanlarimiz konsepsiyasini mujassam etuvchi, roman takomilini belgilovchi mustahkam badiiy birlikki, buning mustaqillik davri estetik tafakkuri maqomini belgilashdagi ahamiyati katta.



**SCIENTIFIC COUNCIL UNDER SCIENTIFIC COUNCIL ON  
AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 AT  
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND  
LITERATURE ALISHER NAVOIY**

---

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND  
LITERATURE ALISHER NAVOI**

**ZIYAYEVA YULDUZ TEMIRXONOVNA**

**POETIC IMPROVEMENT OF “ENAMORED-MISTRESS-RIVAL”  
IMAGES IN UZBEK NOVELS OF THE INDEPENDENCE PERIOD**

**10.00.02 – Uzbek literature**

**ABSTRACT OF DISSERTATION OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)  
IN PHILOLOGY**

**Tashkent – 2023**

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under number B2022.2.PhD/Fil2435.

The dissertation has been prepared at Uzbekistan State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (abstract)) on the Scientific council website (www.tsuull.uz) and on the website Ziyonet information and educational portal website (www.ziyonet.uz).

**Scientific supervisor:** **Jurakulov Uzok Haydarovich**  
Doctor of Philological Sciences, Professor

**Official opponents:** **Murodov G'ayrat Nekovich**  
Doctor of Philological Sciences, Professor

**Radjapova Burobiya Tangirovna**  
Doctor of Philosophy in philology


**Leading organization:** **Samarkand state university named after Sharof Rashidov**

The defense will take place on « 5 » 04 2023 at 12<sup>00</sup> at the meeting of Scientific council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 on awarding scientific degrees at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (Address: 100100, Tashkent, Yakkasaray district, Yusuf Khos Hojib street-103. Tel: (99871) 281-42-44, , fax (99871) 281-42-44 (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz.).

The dissertation is available at the Information Recourse Center of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (registered under the number 257) (Address: 100100, Tashkent, Yakkasaray district, Yusuf Khos Hojib street-103. Tel: (99871) 281-42-44, fax (99871) 281-42-44 (www.tsuull.uz).

Abstract of dissertation was sent out on « 27 » 03 2023

(Mailing report № 2 on « 27 » 03 2023)

  
**I.I.Adizova**  
Chairman of the Scientific council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, professor  
**Q.U.Pardaev**  
Secretary of the Scientific council under the scientific council on awarding scientific degrees Doctor of Philological Sciences, associate professor  
**Q.B.Yo'ldoshev**  
Chairman of the seminar of the Scientific council under the Scientific council on awarding scientific degrees Doctor of pedagogical sciences, professor

## INTRODUCTION (The annotation of doctoral dissertation)

**The topicality and relevance of the research:** From historical point of view, world literature has presented various examples of artistic image. The image-triad "enamored-mistress-rival" is the oldest, most active and perfect poetic system in terms of content and form, which was created in the same process. One of the topical issues facing today's literary studies is the gradual study of the factors, formation and development processes of this ancient system.

Combining the science of historical poetics with theoretical literary studies in world literature studies, applying it to the literary-historical process ensured that the theory of literature reached a new, global scale. Such updates are the basis for the study of the theory of literary studies in general, and in particular, a specific artistic image according to the principle of historicity, for a deeper elucidation of the essence of the issue. Researching folklore sources, images of classical and modern literature as a whole, based on the principle of historicity, has become the most effective way to update existing traditions and strengthen scientific and theoretical potential. Such original interpretations and approaches are important in defining the role and importance of the "enamored-mistress-rival" system of triad in the Uzbek novel.

During the period of independence, especially in the last five to six years, scientific, spiritual, scientific and technical directions, including the field of literary studies, rose to a new level. The search for ways and methods of analysis and interpretation of the new literature that adapts to the standards of the globalized world of the 21st century is causing the new Uzbek literary studies to strive for qualitative changes. These processes demand revision and updating of the specific problems of literary history, literary theory and literary criticism. Literary genres, artistic work, plot, composition, in particular, changes in the nature of the artistic image, and their poetic improvement are among the core problems of today's science of literary studies. The "enamored-mistress-rival" triad was formed during the thousand-year traditions of Uzbek literature and went through the stages of development and change. In Uzbek folklore, classical literature, modern prose and lyrics, it is observed that various forms and examples of this system of triad have changed from the point of view of content and form. This system returned Abdulla Kadiri to the reality of the divine message that came in the Holy Qur'an, encouraged him to continue the traditions of the epics "Alpomish", "Gorogli", and was the basis for bringing the spirit of Alisher Navoi's "Khamsa" epics to a new genre level. However, in the novel "Kecha va Kunduz" ("Night and Day") by Abdulhamid Cholpon, national problems were interpreted in the prism of European novel thinking. In the novel "Kutlug' khan" ("Sacred Blood") by Musa Tashmuhammad o'gli Oybek, the trio of "enamored-mistress-rival" is inextricably linked with the reality of life, as well as certain changes under the influence of historical conditions and Soviet literary policy. Abdulla Qahhor's novel ("Sarob") "Mirage" also suffered from the same social conditions, the central characters in it were subjected to serious criticism and pressure. As a result, there were voluntary-forced changes in the specification of "enamored-mistress-rival" images, i.e. socialization and classification. However, certain changes in the 1960s and 1980s, the social policy known as the "gentle breeze", became a factor in the

relative poeticization and nationalization of fiction, in particular, in the images of novels. The same artistic resonance showed its serious results in the works and novels of Odil Yakubov, Primkul Kadirov, Utkir Hashimov, Murad Muhammad Dost, Erkin Azam, Togay Murad, Khurshid Dostmuhammad, Shoyim Botayev, Luqmon Borikhon, Ulugbek Hamdam and Isajon Sultan. Accordingly, "If literature, art and culture live, the nation and the people, the whole humanity will live peacefully!"<sup>1</sup>. Therefore, today's renewed literature, the extent to which the artistic images reflected in them are related to our national traditions, the existence of poetic laws, and thus the systematic research of the processes of conquering the levels of world literature are important and urgent problems facing Uzbek literary studies of the new era.

The research contributes to the implementation of following presidential decrees, orders and speeches: PF-4797 dated May 13, 2016 of the President of the Republic of Uzbekistan "On the establishment of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi", PF-4947 dated February 7, 2017 Decrees "On the Strategy of Actions for Further Development of the Republic of Uzbekistan", dated February 17, 2017 No. PQ-2789 "Measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, the organization, management and financing of scientific research", PQ-3271 dated September 13, 2017 on "Comprehensive program of measures to develop the system of publication and distribution of book products, increase and promote book reading and reading culture", PQ-3652 dated April 5, 2018 "On measures to further improve the activities of the Writers' Union of Uzbekistan", the president's speech at a meeting with representatives of creative intellectuals of Uzbekistan dated August 3, 2017, his instructions on increasing the influence of literature and other regulatory and legal documents related to this activity during his visit to Adiblar Avenue in Tashkent city on May 20, 2020.

**Compliance of the research with the priorities of the republic's science and technology development.** The research was carried out within the framework of priority line I. "Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state, development of innovative economy" of the republic's science and technology development.

**The level of study of the problem.** Uzbek novels of the period of independence have been studied in various aspects. In particular, such theoretical problems as the history of novel writing, gradual stages, the emergence and formation of the Uzbek national novel, specific aspects of the development of the genre, traditional realistic interpretation, analysis of novels in the direction of modernism, variety of styles, plot, conflict, system of images were studied by such scholars like M. Koshjanov, U. Normatov, A. Rahimov, D. Torayev, Z. Pardayeva, S. Sodikov, I. Yakubov, G. Murodov, S. Meli, Q. Yoldosh, D. Kuronov, U. Dzhorakulov, B. Karimov, Sh. Doniyorova, M. Pirnazarova and M. Sheraliyeva<sup>2</sup>. Specifically, M. Koshjanov

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. // "Халқ сўзи" газетаси, 2017. 153-сон

<sup>2</sup> Қўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари / Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Жилд 1. – Т.: Фан, 1991; Норматов У. Қодирий боғи. – Т., 1994; Рахимов А. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт). Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 1993; Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадиий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60–80-йиллар). Филол. фан. д-ри... дисс. – Т., 1994;

